



XUSUSIY INVESTORLAR FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING SAMARADORLIGI

THE EFFECTIVENESS OF TAX INCENTIVES IN PROMOTING THE ACTIVITY OF PRIVATE INVESTORS

**¹Begmatova Shaxlo
Faxriddin qizi**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada qimmatli qog‘ozlar bozorida xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlarining samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Mavjud adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va misollarni tahlil qilib, ushbu maqola soliq imtiyozlarining xususiy investitsiya xatti-harakatlariga, bozor likvidligiga va umumiy bozor ko‘rsatkichlariga ta‘sirini baholaydi.

Eng. - This article examines the effectiveness of tax incentives for private investors in the securities market. By analyzing the existing literature, empirical studies, and case studies, this article assesses the impact of tax incentives on private investment behavior, market liquidity, and overall market performance.

Kalit so‘zlar: Keywords:

❖ *solliq imtiyozlari, xususiy investorlar, qimmatli qog‘ozlar bozori, investitsion xatti-harakatlar, bozor likvidligi, bozor faoliyati.*

❖ *tax incentives, private investors, stock market, investment behavior, market liquidity, market activity.*

Kirish.

Soliq imtiyozlari ko‘pincha hukumatlar tomonidan turli sohalarda, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya faolligini rag‘batlantirish uchun qo‘llaniladi. Soliq imtiyozlari investitsiya qarorlarini shakllantirishda va turli sohalarda iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori sharoitida xususiy investorlarni bozorda faol ishtirok etishga undash, shu orqali bozor likvidligi va samaradorligini oshirish uchun soliq imtiyozlaridan foydalaniladi.

Soliq imtiyozlari investitsion qarorlarni shakllantirishda, xususan, fond bozorining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan muhim vosita hisoblanadi. Ushbu imtiyozlar xususiy investorlarni jalb qilish, bozor likvidligini oshirish va natijada iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish maqsadida ishlab

chiqilishi mumkin. Biroq, bunday rag‘batlantirish choralari samaradorligini baholashda ularning turi, amal qilish muddati va maqsadli investor segmenti kabi omillarni tahlil qilish zarur.

Ilmiy tadqiqotlar soliq imtiyozlarining investorlar uchun soliq yukini kamaytirish yoki kapital o‘rishni bo‘yicha imtiyozlar yaratish orqali investitsion qarorlarga ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, empirik tadqiqotlar soliq imtiyozlarining fond bozori xatti-harakatlariga bo‘lgan real ta‘sirini baholashda muhim rol o‘ynaydi. Soliq imtiyozlari joriy etilishidan avval va keyingi davrda savdo hajmi, narx dinamikasi hamda investorlar tolerantligi kabi omillarni tahlil qilish orqali ushbu choralar istalgan natijalarni berganligini aniqlash mumkin. Umuman olganda, fond bozorida xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlarini

joriy etish ham emitentlar ham investorlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

S.Ibragimova va A.Ravshanova tadqiqotlarida O'zbekistonda korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) amaliyotlari va ularning mavjud muammolari yoritiladi [1]. Shuningdek, izlanishda KIM orqali investitsion muhitni yaxshilash va investorlar ishonchini oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan, bu esa soliq imtiyozlari bilan birgalikda muhim omil sifatida qaraladi.

V.Petrov, A.Mirzaev va I.Atabaev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda KIMning investorlar tomonidan qanday qabul qilinishini, ayniqsa, xalqaro investitsiyalar uchun muhim signal sifatida qanday ishlashi ko'rsatiladi [2]. Shuningdek, soliq imtiyozlari bilan bog'liq holatda, ijtimoiy mas'uliyatli kompaniyalarni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy chora-tadbirlarning investitsion oqimlarga ijobiy ta'siri asoslanadi.

M.Matthew KIM bo'yicha hisobotlar evolyutsiyasini va ularning investorlar uchun axborot manbai sifatidagi rolini tahlil qiladi. Soliq imtiyozlarining samaradorligi bu kabi axborotlar orqali oshishi mumkinligi ta'kidlanadi [3].

Yevropa Ittifoqida KIMni rivojlantirish bo'yicha strategik yondashuvlar "A renewed EU strategy 2011-14 for Corporate Social Responsibility" nomli hujjatda keltirilgan [4]. U fond bozorlarida axloqiy va barqaror investitsiyalarni rag'batlantirish, shu jumladan soliq siyosatini KIM bilan uyg'unlashtirishni ta'kidlaydi.

Hauser Center tashkiloti esa turli davlatlar va fond birjalari tomonidan KIM bo'yicha hisobotlarni tahlil qiladi. Soliq imtiyozlari sharoitida bu kabi oshkorlik investorlar ishonchi oshiradi va bozor faolligini qo'llab-quvvatlaydi [5].

Turli mamlakatlar tajribasi qimmatli qog'ozlar bozorida xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlarini amaliyotga joriy etish

borasida muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Masalan, Singapurda yakka tartibdagi investorlar uchun ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari fond bozoriga turli investor segmentlarini jalb qilishda muhim rol o'ynagan. Bu esa bozorning o'sishi va barqarorligiga sezilarli hissa qo'shgan.

AQShda esa kapital o'sishdan olinadigan daromadlar bo'yicha soliq imtiyozlari xususiy investorlarni fond bozoriga ko'proq kapital yo'naltirishga undagan. Natijada, bozor likvidligi oshgan, savdo faolligi kuchaygan va investorlar ishonchi mustahkamlangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot doirasida tizimli tahlil, ilmiy mushohada, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mavjud adabiyotlar, empirik tadqiqotlar va amaliy misollar shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari qimmatli qog'ozlar bozoriga xususiy investitsiyalarni jalb etishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, ushbu imtiyozlarning samaradorligi mavjud iqtisodiy muhitga, tartibga solish tizimining barqarorligiga va institutsional ishonch darajasiga bevosita bog'liq.

Soliq imtiyozlarining uzoq muddatli barqarorligi, ijtimoiy tenglik va moliyaviy tizimga keltirishi mumkin bo'lgan risklar soliq imtiyozlarini berishda inobatga olinishi kerak.

Soliq imtiyozlari qisqa muddatda bozor faolligini kuchaytirishi mumkin bo'lsa-da, ularning daromadlar taqsimoti, aktivlar narxining beqarorligi va tartibga solinmagan spekulativ xatti-harakatlarga ta'siri batafsil baholanishi lozim. Bundan tashqari, turli investor segmentlari va bozor sharoitlari uchun ushbu imtiyozlarning samaradorligi farqlanishi mumkin. Shu boisdan, rag'batlantirish sxemalarini aniq maqsadlarga – masalan, innovatsion tarmoqlarga yoki kichik va o'rta korxonalarga sarmoya kiritishni

rag'batlantirishga – moslashtirish orqali ularning umumiy ijobiy ta'sirini oshirish mumkin.

Soliq imtiyozlari dasturlarini samarali boshqarish uchun ularni doimiy ravishda monitoring qilish va baholash zarur. Bu orqali ularning real ta'siri aniqlanadi, mavjud bo'shliqlar va kutilmagan salbiy oqibatlar aniqlanib, kerakli o'zgartirishlar kiritish

imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, manfaaddor tomonlarning uzluksiz ishtiroki va fikr-mulohaza bildirish mexanizmlarini joriy etish soliq imtiyozlarini taqdim etish amaliyotini takomillashtirish imkonini beradi.

Qimmatli qog'ozlar bozorida xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuv algoritmi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Qimmatli qog'ozlar bozorida xususiy investorlar uchun soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha uslubiy yondashuv algoritmi

Bosqich	Mazmuni	Asosiy vazifalar
1-bosqich	Soliq imtiyozlarini aniqlash va tahlil qilish	Statistika mavjudligi, fiskal qiymati, individual va institutsional investorlar kesimida tahlil
2-bosqich	Soliq xarajatlarini baholash	Davlat soliq xarajatlari rasmiy ma'lumot yoki hisob-kitoblar asosida aniqlanadi
3-bosqich	Investor portfellarini tahlil qilish	Fond indeksleri asosida portfel tuzilmasi va emitentlar aniqlanadi
4-bosqich	Emitentlar moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish	Kapital, qarz, daromad, foyda va soliq to'lovlari tahlili
5-bosqich	Fiskal samaradorlikni baholash	Soliq imtiyozlarining fiskal ta'siri va iqtisodiy asoslar aniqlanadi
6-bosqich	Soliq rejimini optimallashtirish	Imtiyozlar shartlarini takomillashtirish va siyosiy qarorlar uchun asos

Olti bosqichli algoritm xususiy investorlar uchun qimmatli qog'ozlar bozorida qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarining samaradorligini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Dastlabki bosqichlarda mavjud soliq imtiyozlari aniqlanadi, ularning fiskal ahamiyati baholanadi hamda individual va institutsional investorlar o'rtasidagi farqlar hisobga olinadi. Bu bosqichlar investorlar faoliyatini tushunishga va tahlil uchun zarur statistik bazani shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining xarajatlari aniqlanib, bu xarajatlar keyingi fiskal samaradorlik bahosining asosi sifatida qo'llaniladi.

Keyingi bosqichlar xususiy investorlar portfellarining tarkibini, ularning investitsiya obyektlari, ya'ni qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy holatini tahlil qilishga qaratilgan. Emitentlarning kapital

tuzilmasi, daromad va foyda ko'rsatkichlari, shuningdek, davlat byudjetiga to'langan soliqlar asosida soliq imtiyozlarining bozorga va fiskal siyosatga ta'siri baholanadi. Bu orqali soliq imtiyozlarining nafaqat investorlar faoliyatiga, balki butun moliyaviy tizim va iqtisodiyotga ta'siri o'lchanadi.

So'nggi bosqichda esa olingan natijalarga tayanib, mavjud soliq imtiyozlari rejimini optimallashtirish, ularning fiskal samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu jarayon soliq siyosatining barqaror, shaffof va maqsadli bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, investorlar ishonchini mustahkamlash va bozor faolligini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan algoritm soliq imtiyozlarining amaliy natijalarini aniqlash, ularni takomillashtirish va investorlar uchun

yanada samarali moliyaviy muhit yaratish yo'lida muhim uslubiy yondashuvdir.

Xulosa va takliflar.

Soliq imtiyozlari xususi investorlarni qimmatli qog'ozlar bozorida ishtirok etishni rag'batlantirishda, shu orqali bozor likvidligi va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorida xususi investorlar uchun taqdim etiladigan soliq imtiyozlari ularni investitsiyalarga jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari bozor likvidligini oshirish, investitsiya faolligini kuchaytirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga

sezilarli hissa qo'shadi. Biroq, bu imtiyozlar fiskal barqarorlik va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga asoslangan holda puxta rejalashtirilishi lozim.

O'zbekiston sharoitida ushbu imtiyozlarning ta'sirini baholash uchun tizimli va bosqichma-bosqich yondashuv zarur. Taklif etilgan algoritm soliq imtiyozlarining fiskal xarajatlari, investorlar portfeli, emitentlar faoliyati va fiskal samaradorlikni tahlil qilish orqali rag'batlantirish vositalarining real natijalarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa soliq siyosatini optimallashtirish, investorlar segmentlariga moslashtirish va bozorga maqsadli ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimova, S. M., & Ravshanova, A. Z. (2018). *Corporate Social Responsibility in Uzbekistan: Practices and Problems*. *Journal of Economics, Business and Management*, 6(1), 22-26.
2. Petrov, V., Mirzaev, A., & Atabaev, I. (2019). *Corporate Social Responsibility in Uzbekistan: Perception and Practice*. *Journal of Central Asian Studies*, 4(1), 29-46.
3. Matthew Maguire, "The future of Corporate Social Responsibility Reporting," Boston University website, The Frederick S. Pardee Center for the Study of Longer-range future.
4. "A renewed EU strategy 2011-14 for Corporate Social Responsibility," European Commission press release. http://ec.europa.eu/enterprise/newsroom/cf/getdocument.cfm?doc_id=7010, accessed on 25 October 2015.
5. "Current Corporate Social Responsibility Disclosure Efforts by National Governments and Stock Exchanges," The Hauser Center website, <http://hausercenter.org/iri/wp-content/uploads/2011/08/CSR-Disclosures-Update-6-27-13.pdf>